



Pedagogical opportunities for education and intellectual development through interactive encouragement of students (using the example of primary classes)

Dilnoza AKHMEDOVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 October 2023

Available online

15 December 2023

Keywords:

educational process,
stimulation,
encourage,
motive,
motivation,
traditional method,
interactive method,
integration.

ABSTRACT

This article discusses the effectiveness of the development of students' intelligence by using the method of interactive stimulation in the educational process, the importance of stimulation in the educational process, the advantages of using it in the educational process, the concept of the stimulation method, and it is explained through the opinions and definitions of several foreign scientists. The article presents a motivational method related to natural sciences that develops students' imagination about the Universe and skills in performing operations with multi-digit numbers.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp121-127>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'quvchilarni interfaol usulda rag'batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari (boshlang'ich sinflar misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ta'lim jarayoni,
rag'bat,
rag'batlantirish,
motiv,
tarbiya,
motivatsiya,
an'anaviy metod,
interfaol metod,
integratsiya.

Ushbu maqola ta'lim jarayonida interfaol usulda rag'batlantirish metodini qo'llash orqali o'quvchilar intellektini rivojlantirishning samaradorligi, ta'lim jarayonida rag'batlantirishning ahamiyati, o'quv jarayonida qo'llashning afzalliklari, rag'batlantirish metodi tushunchasi xususida adabiyotlarda keltirilgan va bir qator xorij olimlarining fikr-mulohazalari, ta'riflari yoritib berilgan.

¹ Doctoral student, Andijan State Pedagogical Institute.

Педагогические возможности воспитания и развития интеллекта учащихся посредством стимулирования их в интерактивном режиме (на примере начальных классов)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

учебный процесс, стимул, поощрять, мотив, образование, мотивация, традиционный метод, интерактивный метод, интеграция.

В данной статье рассматривается эффективность развития интеллекта учащихся через использование метода интерактивной стимуляции в образовательном процессе. Обсуждается значение стимуляции в учебной деятельности, преимущества её использования, а также само понятие метода стимуляции. Это объясняется на основе мнений и определений ряда зарубежных учёных. В статье также представлен метод мотивации, относящийся к естествознанию, который способствует развитию воображения учащихся о Вселенной и умений работать с многозначными числами.

Kirish

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati va talablari ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Zero, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Bunday yoshlarni tarbiyalash esa pedagoglar oldiga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy texnologiyalarini izlab topish va uni amalda samarali qo'llay olish talabini qo'ymoqda. Ta'lim samaradorligiga erishish hamda o'quvchilarning intellektual va kognitiv faoliyatlarini rivojlantirishda ularni o'z o'rnida munosib rag'batlantirib borish eng samarali metodlar sirasiga kiradi.

Inson faoliyatining tuzilishini o'rganish bo'yicha olib borilgan turli tadqiqotlar doimo unda rag'batlantiruvchi komponentga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi. Agar bir vaqtning o'zida shaxsda faol, to'liq fidoyilik bilan harakat qilish, muqarrar qiyinchiliklarni, noqulay sharoitlarni va boshqa vaziyatlarni yengib, ko'zlangan maqsad sari tirishqoqlik bilan harakat qilish istagini uyg'otadigan rag'batlar mavjud bo'lsa, har qanday faoliyat samaraliroq davom etadi va yuqori sifatli natijalar beradi. Bularning barchasi bevosita ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lib, agar o'quvchilarda bilimga ijobiy munosabat, ularda kognitiv qiziqish mavjudligi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash zarurati, ularda burch, mas'uliyat hissi va hokazolar bo'lsa, metod yanada muvaffaqiyatli va samarali bo'ladi [1; 2-ilova].

Innovatsiyalar asri fonida yashayotgan o'quvchilar endi ta'limga an'anaviy yondashuvlar kerakli samara bermasligi mumkin bo'lgan boshqa dunyoga jadallik bilan moslashmoqdalar. Umumta'lim maktablarida interfaol rag'batlantirishdan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aql-zakovatini rivojlantirish ularning kuchli intellektual qobiliyatlarini va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishning zamonaviy qolaversa samarali usuli hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Rivojlanayotgan shaxsni, ya'ni o'quvchini rag'batlantirishning zarurligi haqidagi fikrlar bir qator pedagog va psixologlarning izlanishlarida bola qiziqishlarini himoyalashning nazariy-amaliy xususiyatlarini ochish tarzida bayon etilgan. Jumladan, R. Safarova, E. G'oziyev, D.A. Abdurahimova, Q. Oqilova, F.B. Valixo'jayeva, M.M. Berdiyeva, N.I. Xalilova, E.M. Muxtorov, Q.B. Jo'rayev, P.I. Ivanov, M. Zufarova, M.V. Vohidov, M.X. Rahmonovalar mazkur muammoga e'tibor qaratganlar.

Shuningdek, rus psixologiyasi namoyandalari K.D. Ushinskiy, I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, V.M. Bexterev, A.F. Lazurskiy, V.N. Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N. Uznadzs, S.L. Rubinshten. A.N. Lsotggsov, P.M. Yakobsov, V.S. Merlin, L.I. Bojovich, V.I. Selivanov, V.G. Aseez va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. L.I. Bojonich "shaxs shakllanishini muayyan davrlarga bo'lishda motivlarga asoslanadi, shuning uchun bu yondashuvni motivatsion yondashuv deb yuritish mumkin" deb ta'kidlagan.

Psixologiyada rag'batlantirish shaxsga nisbatan motivatsiya berish deb yuritiladi. Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet davlatlarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashdi. Psixologiyada "motiv" tushunchasi

sabab, xatti-harakatni talab qiladi, shuning uchun ham o'quv motivlari o'quvchining faoliyat predmetiga munosabati, shu faoliyatga yo'naltirilishi sifatida aniqlanadi. Faoliyatning motivatsiyasi uni rag'batlantirish, ya'ni harakatga undash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. [4; 27–29-b.]

"Rag'bat" – inson his-tuyg'ulari, ruhiy holatlari rivoji va barqarorlashuviga yordam beruvchi, uni faollikka undovchi psixik ta'sir. U javob reaksiyasi sifatida shaxsga ta'sir o'tkazishning vositasi vazifasini bajaradi. Shu bois rag'bat ham sabab, ham oqibat rolini o'ynaydi. Bixeviorizm tushunchasi rag'bat bilan reaksiya munosabati tashqi ta'sir, organizmning harakatlarga javob reaksiyasi sifatida talqin qilinadi. Rag'batni motiv bilan bir xil deb qarash mumkin bo'lmasa-da, ba'zi holatlarda rag'bat ichki motivga aylanishi ham mumkin. Psixologiyada rag'bat inson ruhiyatiga, bilvosita dunyoqarashiga, hissiyotiga, kayfiyatiga, qiziqishiga, intilishiga ijobiy ta'sir o'tkazishdir. Rag'bat moddiy va ma'naviy mazmunga ega bo'lib, shaxsning faoliyat samaradorligi ortishiga xizmat qiladi" [2; 92–93-b].

Pedagog olimlarimizdan Y.Rasulova, D.Maqsudovalar tomonidan ishlab chiqilgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanmada rag'batlantirish metodiga quyidagicha ta'rif berilgan. **"Rag'batlantirish** – pedagogik ta'sir ko'rsatish usulidir. O'quvchilarning, bolalar jamoasining xatti-harakatlari va ishlarini ijobiy baholash uning asosini tashkil qiladi. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilar xulq-atvorida ijobiy xislatlarni ko'paytirib, mustahkamlashga yordam beradi. Unda rag'batlantirilgan o'quvchilargina emas, balki butun sinf zaruriy saboq oladi. Buning natijasida o'quvchilar jamoasida ishni yanada yaxshi bajarishga, tartib-intizomli bo'lishga, ishonchni oqlashga intilish yuzaga keladi" [3; 5–6-b.].

Natijalar va muhokama

O'qitishda taqdimotlar va bir tomonlama muhokamalarni o'z ichiga olgan darslar yagona monoton yondashuv bo'lsa, albatta o'quv faolligi darajasini pasaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, interfaol yondashuvlar o'quv jarayonini boyitib, uni qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilar e'tiborini jalb qilish va ularning faolligini oshirish usullaridan biri interaktiv stimulyatsiya (rag'batlantirish)dir.

Интерактив stimulyatsiya o‘tilayotgan dars mashg‘ulotlarini o‘rganishni yanada amaliy va integrativ qilish uchun ta‘lim o‘yinlari, texnologiya, guruh bilan ishlash loyihalari va umumiy sinf muhokamalari kabi turli xil o‘quv resurslaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu metod sinfni universal bilimlarni oson hazm qiladigan va boshqarilishi oson bo‘ladigan kichik guruhlariga ajratadi.


Интерактив stimulyatsiyaning aqlning rivojlanishiga ta‘siri

Интерактив rag‘batlantirish o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bevosita ishtirok etishga majbur qiladi, bu esa auditoriyani darsga nisbatan qiziqishini maksimal oshiradi. O‘quvchilar berilayotgan ma‘lumotlarni passiv ko‘rish o‘rniga ular bilan faol muloqotga kirishadi. Bu esa intellektual rivojlanishni rag‘batlantiradi, chunki bunday yondashuv yordamida o‘quvchilar axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholash, muammolarni ijodiy hal qilish va jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. O‘quv ilovalari kabi innovatsion texnologiyalarga asoslangan onlayn darslarni o‘rganishni mustaqil ravishda o‘zlari uchun qulay va qiziqarli ko‘rinishga keltirishi mumkin. Ilovalar, o‘yinlar va jumboqlardan foydalanib, bolalar o‘yin orqali o‘rganadilar, murakkab tushunchalar va ko‘nikmalarni egallaydilar.

Quyida biz boshlang‘ich sinflar uchun o‘z-o‘zini stimulyatsiyalashga matematik tushunchalar yordamida yondashish metodini ko‘rsatib o‘tamiz:

O‘lchov birliklari orqali rag‘batlantirish

Bunda o‘quvchilar o‘z-o‘zini baholaydi. Buning uchun dastlab o‘quvchilarning dars davomidagi faolligi va darsga qatnashishiga qarab o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘lchov birliklari yozilgan kartochkalar tarqatadi. Dars so‘ngida o‘quvchilar o‘zi to‘plagan ballarni o‘lchov birliklarining turli kattaliklarida ifodalab beradi. Eng ko‘p o‘lchovga ega bo‘lgan o‘quvchilar turli nominatsiyalarda mukofotlanadi. Bunday rag‘bat kartochkalarini murakkablashtirmaslik uchun uzunlik, og‘irlik va vaqt o‘lchovi birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Rag‘bat kartochkalari dizaynini tanlash har bir pedagogning o‘z ixtiyorida bo‘lib, quyida baholar kesimida kartochkalarga namunalar keltirilgan:



Yuqoridagi metodda 1-2-sinflar uchun esa soddaroq variantidan foydalanish mumkin. 5 baho 5sm, 4 baho 4sm, 3 baho 3sm va hk. kabi belgilansa, dars so'ngida o'quvchilar o'zlari to'plagan ballarini kattaroq o'lchovi birliklari masalan detsimetrlarda ifodalaydi.

Masalan: 45 sm = 4dm,5sm


16sm= 1dm,6sm

29sm=2dm,9sm

Bu usulning afzalliklari shundaki, o'quvchilarning uzunlik, og'irlik hamda vaqt o'lchov birliklari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. O'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilar ham darsga nisbatan qiziqishi ortib, o'z potensialiga qaraganda ancha yuqori natijalarni qayd etadi. Bu metodni matematika darslaridan tashqari boshqa darslarga tatbiq etish ham maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchi biroz o'zlashtirishi qiyinroq bo'lgan o'lchov birliklari mavzusini har doim yodda saqlashi mumkin.

Dars olib borishda stimulyatsion metodlar uchun aniq hisob-kitob qilingan, samaradorligi oldindan belgilab qo'yilgan umumiy metodlar yo'qligi uchun, pedagog sinfdagi o'quvchilarning bilim salohiyati va sinf jamoasining ta'lim-tarbiyasidan kelib chiqib rag'batlantirish metodini tanlaydi. Quyida biz boshlang'ich sinf o'quvchilari qamrovida rag'batlantirishning interfaol usullaridan biri bo'lgan va tabiiy fanlar tarmog'ini o'z ichiga olgan metodni ko'rsatib o'tamiz.

1-2-sinflar uchun



Yuqoridagi metoddan boshlang'ich sinf fan o'qituvchilari bilan bir qatorda sinf rahbarlari ham foydalansa bo'ladi. Boshlang'ich sinfda deyarli barcha fanlar sinf rahbarlar tomonidan o'rgatilib kelinishini inobatga olsak, mazkur metod aynan sinf rahbarlari uchun o'quvchilarni darsga qiziqtirish bilan bir qatorda, davomat hamda tartib-intizomni saqlash uchun foydali hisoblanadi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich: ✦ – bu turdagi yulduzcha har bir o'quvchining maktabga kelganligi va o'quv fanlaridan olgan har bir 5 bahosi uchun berib boriladi.

2-bosqich: ★ – bu yulduzchalar yuqoridagi yulduzchalar 3 taga yetganda beriladi. Ya'ni 3 kichik yulduzchalar 1 ta qizil yulduzchaga almashtiriladi.

3-bosqich: ★ – bu turdagi yulduzchalar esa qizil yulduzchalarning 3 tasiga almashtiriladi.

4-bosqich: Bu bosqichga yetib kelish uchun o'quvchilar sariq yulduzchalardan 10 ta to'plagan bo'lishi lozim va bu 10 ta yulduzchalar katta porloq yulduzga aylanadi va sinf burchagida tashkil qilingan **"Samoviy yulduzlar"** burchagidan joy oladi. Har bir o'quvchining porloq yulduziga o'zining rasmi yopishtirib qo'yiladi.



Yuqoridagi interfaol usulda rag'batlantirish metodini bir chorak yoki bir oylik o'quv davri uchun qo'llash mumkin. Sinf rahbarlari o'quvchilarni nafaqat 5 baholar uchun, balki jamoat ishlaridagi faolligi, tartib-intizomligi va qo'shimcha sinf topshiriqlarini o'z vaqtida bajarganligi uchun istalgan turdagi yulduzchalar bilan rag'batlantirib borishlari mumkin.

O'quvchilar psixologiyasidan kelib chiqib, darsdagi jazo yoki rag'bat turini kamaytirish choralari ko'riladi.

3-4-sinflar uchun

3-4-sinflar uchun mazkur metod quyidagi tartibda olib boriladi. Chorak boshida sinf rahbari yoki fan o'qituvchisi tomonidan barcha o'quvchilar quyoshda ekanligi, undagi harorat o'ta issiqligi sababli tezroq boshqa sayyoralarga o'tib olish kerakligi tushuntiriladi. Har bir sayyora orasidagi masofaning uzunligiga qarab to'plash kerak bo'lgan yulduzchalar soni belgilab qo'yiladi. Ya'ni oralaridagi masofa uzoq bo'lgan ikki sayyorani "zabt etish" uchun ko'proq yulduzcha to'plash talab etiladi. 3-4-sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik holati hamda individual salohiyatini hisobga olib, ular uchun to'planadigan yulduzchalar sonini 2 barobarga oshirib, 20 ta etib belgilash maqsadga muvofiq.

№	... dan	...gacha	masofa	Yulduzchalar soni
1.	Quyosh	Merkuriy	58mln.km	1
2.	Merkuriy	Venera	51mln.km	1
3.	Venera	Yer	42 mln. km	1
4.	Yer	Mars	78 mln. km	1
5.	Mars	Yupiter	551 mln. km	2
6.	Yupiter	Saturn	651 mln. km	3
7.	Saturn	Uran	1 mlrd. 733mln. km	6
8.	Uran	Neptun	1 mlrd. 620 mln. Km	5
	Jami:		4 mlrd.788 mln. km	20

Metodni qo'llash afzalliklari shundaki, sayyoralar o'rtasidagi masofalarni bilish orqali o'quvchilarning koinot haqidagi bilimlari va tasavvurlari kengayadi. Sayyoralar orasidagi masofalarni yodda saqlash va og'zaki hisoblash malakalari rivojlanadi. Bu esa istalgan o'quv fanini boshlang'ich sinf yuklamasida mavjud bo'lgan "Tabiiy fan" darslari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi. Metodni qo'llash davomida quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

1. Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni o'z ichiga olish: Bu yondashuv o'quvchilarga haqiqiy muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi, bu esa ularda analitik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Texnologiyadan foydalanish: o'quv ilovalari va qurilmalarini sinfga kiritish o'quvchilarning o'zaro ta'sirini va o'rganishga faolligini oshirishga yordam beradi.

3. O'yin orqali o'rganish: O'quv mashg'ulot o'yinlari o'quvchilarni butun o'quv jarayoni davomida qiziqtirishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin.

Xulosa

Shunday qilib, biz o'rganishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish uchun usullar guruhini va ularga kiritilgan turli usullarni tasvirlab berdik. O'quv jarayoni nafaqat kognitiv qiziqishni rag'batlantirishga, shuningdek bir qator boshqa interfaol usulda rag'batlantirishlarga ham asoslanadi. Ular orasida maktab o'quvchilarining o'qishdagi burch va mas'uliyatini rag'batlantirish ayniqsa muhimdir. Ushbu rag'batlar o'quvchilarga o'rganishdagi muqarrar qiyinchiliklarni yengib o'tishga, quvonchni his qilishlariga, o'rganishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishdan qoniqish hissini his qilishlariga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quv jarayonida burch va mas'uliyatni shakllantirishning metodlari maktab o'quvchilarini tarbiyalash usullariga asoslanadi, bu o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya jarayonlarining birligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4676839>

2. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/> 11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ Р ҲАРФИ

3. Y.Rasulova, D.Maqsudovalar tomonidan ishlab chiqilgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma

4. Duayt Li. "Rag'batning kuchi", available at: econfun.s3.eu-central-1.amazonaws.com

5. U.I.Inayatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova Pedagogika:1000 ta savolga 1000 ta javob: metodik qo'llanma. -Toshkent: 2012.-54 b.

6. Innchenon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015).

7. Раимбаев Б., Маковецкая Ю.Г. Мотивация учения: основы организации образовательной организацией психология.

D.Axmedova, O'quvchilarni rag'batlantirish orqali tarbiyalash va intellektual salohiyatlarini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (boshlang'ich sinflar misolida). " Umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, 15-may 2023-yil.